

Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida bo‘lajak mutaxassislarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari

Zarina Murodjon qizi Salimjonova

salimjonovazarina94@gmail.com

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim tizimida mutaxassislarning kasbiy malakasi bilan birga, ularning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi - bu xalqning uzoq tarixiy tajribasi, qadriyatlar, odatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi noyob manba bo‘lib, u yoshlarga insoniylik, halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni singdirishda samarali pedagogik vositaga aylanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida bo‘lajak mutaxassislarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy va metodologik asoslarini ko‘rib chiqish, milliy qadriyatlar va ma’naviy merosni kelajakka yetkazishda muhim o‘rin tutadi . Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida bo‘lajak mutaxassislarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, matal, doston, afsona, yondashuv, axloqiy tarbiya, metod, tamoyil

Theoretical and methodological foundations of spiritual and moral education of future specialists through examples of folk oral art

Zarina Murodjon kizi Salimjonova

salimjonovazarina94@gmail.com

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: In the modern education system, along with the professional qualifications of specialists, the formation of their spiritual and moral image is an urgent task. Folk is a unique source reflecting the long historical experience, values, customs and worldview of the people, which can become an effective pedagogical tool for instilling in young people such qualities as humanity, honesty, patriotism, and hard work. From this point of view, consideration of the theoretical and methodological foundations of the spiritual and moral education of future specialists

based on examples of folk oral art plays an important role in passing on national values and spiritual heritage to the future. This article discusses the theoretical and methodological foundations of the spiritual and moral education of future specialists using examples of folk oral art.

Keywords: folk oral art, proverb, epic, legend, approach, moral education, method, principle

KIRISH

Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida bo‘lajak mutaxassislarini ma’naviy axloqiy tarbiyalashning nazariy metodologik asoslari mavzusi o‘zbek xalqining boy madaniy merosi va pedagogik tajribaga asoslanadi. Bu jarayonda xalq og‘zaki ijodi - ertaklar, maqollar, topishmoqlar, hikmatli so‘zlar, dostonlar va boshqa folklor unsurlari - tarbiya vositasi sifatida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Xalq og‘zaki ijodi - bu xalqning adabiy, ma’rifiy va axloqiy merosi bo‘lib, uning tarkibida mavjud bo‘lgan ertaklar, dostonlar, maqollar va rivoyatlar inson ongiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ijod namunalarida insonning hayotiy tajribalari, yaxshi va yomon fazilatlar, ideal va ijtimoiy qadriyatlar ifoda etilgan. Falsafiy jihatdan, xalq og‘zaki ijodi insonning dunyoqarashini shakllantirish, ma’naviy-yuksalishida, axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi, pedagogik jihatdan esa, u tarbiyaviy dialog, muammoli ta’lim va ijodiy yondashuvlar asosida yoshlarni o‘qitishda qo‘llaniladi. Bundan tashqari xalq og‘zaki ijodi pedagogik jihatdan nafaqat yoshlarni o‘qitishda balki yoshlarning kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishi yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida ham o‘zining amaliy isbotini ko‘rsatib kelmoqda.

Tarbiya asosida insonning shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy odob-axloq va vatanparvarlik kabi tushunchalar yotadi. Tarbiya jarayonida, yoshlar nafaqat bilim olish, balki o‘zining ichki dunyosini shakllantirish, axloqiy me’yorlarni anglash va ularni kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini egallashi zarur. Bunday tarbiya jarayonida xalq og‘zaki ijodi o‘zining boy merosi orqali yoshlarni ijobiy fazilatlarga, mas’uliyat va mehnatsevarlikka undaydi .

Xalq og‘zaki ijodining ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi o‘rni uning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida shakllangan bo‘lib, unda xalqning dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari va axloqiy me’yorlari aks etadi. Bu bo‘lajak mutaxassislarning o‘z milliy o‘zligini anglashiga, ajdodlarga hurmat, kelajak hayotga kreativ ijodiy yondashish qobilyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Maqollar, ertaklar va hikmatli so‘zlar oddiy, ammo chuqur ma’noga ega bo‘lib, yoshlardaadolat, mehnatkashlik, halollik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodida insoniyat uchun umumiy bo‘lgan axloqiy qadimiyatlar (masalan, do‘stlik, sadoqat, mehr-oqibat) targ‘ib qilinadi, bu esa mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy hayotida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda, jamiyatda ma'naviy-intelektual immunitetni oshirish zarurati ortib bormoqda. Bo'lajak mutaxassislar kasbini sidqidildan sevuvchi, jamiyatda halol va odobli muomala qiluvchi, axloqiy mas'uliyatni his qiluvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlovchi shaxs sifatida shakllanishi kerak. Bu fazilatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodi samarali vositadir. Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy kuchi quyidagi nazariy poydevorlarga asoslanadi:

- ✓ Tarixiy-madaniy yondashuv - xalq donishmandligi orqali milliy ruhni uyg'otish;

- ✓ Pedagogik yondashuv - xalq ijodi vositasida didaktik (o'rgatuvchi) material yaratish;

- ✓ Psixologik yondashuv - obrazlar orqali hissiy-idrokiy ta'sirni kuchaytirish.

Bu yondashuvlar birgalikda xalq og'zaki ijodini kompleks tarbiyaviy metod sifatida qo'llash imkonini beradi. Xalq og'zaki ijodi namunalari orqali tarbiya berishning asosiy metodik yondoshuvi - bu ibrat ko'rsatishdir. Yaxshi misollar (ertak, maqol, doston) orqali yoshlar o'zlariga ibrat olish, yomon xulqlardan qochish va ijobiy fazilatlarni singdirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu metod yoshlarning hissiy va aqliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Misol uchun "Zumrad va qimmat" ertagi orqali mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, halollik targ'ib qilinadi. Bu esa bo'lajak mutaxassislar uchun kamtarlik hamda mehnatsevarlikni o'rgatadi. "Yaxshiga yaxshi, yomon uchun jazo" maqoliadolatli va mas'uliyatni targ'ib qiladi. "Alpomish" va "Go'rog'li" dostonlari jasorat, sadoqat va o'z xalqiga xizmat qilish kabi fazilatlarni o'rganish uchun ishlatalinadi.

Tarbiya jarayonida muammoli ta'lim usuli yordamida, o'quvchilar hayotiy vaziyatlar asosida axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonini o'rganadilar. Xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlil qilish orqali, ularda ifodalangan ijobiy va salbiy qadriyatlarni asosida muhokama olib borish, tarbiyaviy interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish mumkin. Rolli o'yinlar, dramatik taqdimotlar va ijodiy yozuvlar orqali xalq og'zaki ijodi asarlaridagi qahramonlar va g'oyalar jonlantiriladi. Ushbu usul yordamida o'quvchilar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi va axloqiy qarashlarini mustahkamlaydi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari nafaqat adabiy meros sifatida, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega.

1. *Milliy o'zlikni mustahkamlash*: Ertaklar, dostonlar va maqollar orqali yoshlar o'z milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini va tarixini o'rganadi.

2. *Insoniylik va axloqiy fazilatlar*: Yaxshi fazilatlar - halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik vaadolat kabi tushunchalarni singdiradi.

3. Ijtimoiy-axloqiy munosabatlarni shakllantirish: Tarbiyaviy dialog, muhokama va dramatik usullar orqali o‘quvchilar ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri axloqiy qarorlar qabul qilishni o‘rganadi.

Bunday tarbiya yondoshuvi yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga, shuningdek, kelajakdagi mutaxassis sifatida ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak mutaxassislarni xalq og‘zaki ijodi asosida tarbiyalashda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Tematik suhbatlar va ochiq darslar: Maqollar va ertaklar asosida suhbatlar tashkil etish.

- Ertaklar tahlili: Har bir ertak voqeasi asosida axloqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish.

- Rol o‘ynash usuli: Talabalarni obrazlarga kirib, ertak yoki doston sahnasini teatr tarzida ijro ettirish.

- Insho va babs-munozaralar: "Maqollar - hayot ustozidir" kabi mavzularda bahslar tashkil qilish.

- Integratsiyalashgan darslar: Xalq ijodini o‘zlashtirishni kasbga oid fanlar bilan bog‘lash. Bu yondashuvlar o‘quvchi yoki talabaning faol ishtirokini ta’minlab, ularning fikrlash va xulosa chiqarish salohiyatini oshiradi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev kelajak yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" degan edilar. Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyayev yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib, Shunday degan edilar: "Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi." Shundan kelib chiqib yoshlarga ta’lim hamda tarbiya berishning yangi innovatsion shakllari hamda usullarini izlab topish, bo‘lajak mutaxassislarda mustahkam tarbiya va qarashlarini shakillantirish bola shaxsida milliy madaniyat va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, avaylab asrash tuyg‘ularini o‘stirishga diqqatini qarratmog‘imiz lozim. Xalq og‘zaki ijodida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari keng qamrovli bo‘lib, o‘z zamirida tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi, do‘sit birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning ta’rifi, yaxshi va yomon so‘zning oqibati, halollik, to‘g‘rilik, olijanoblik tarbiyasi,adolat, insof va insofsizlik, og‘ainichilik va qon-

qardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo‘rqoqlik, odobodobsizlik, mehmon va mehmondo‘stlik kabi kategoriyalar talqin qilinadi.

XULOSA

Xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali bo‘lajak mutaxassislarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash - bu milliy madaniyat va qadriyatlar asosida yoshlarni har tomonlama tarbiyalashning samarali usulidir. Nazariy asoslar va metodologik yondoshuvlar yordamida, ertaklar, dostonlar va maqollar asosida ibrat olish, muammoli ta’lim va ijodiy metodlar qo‘llanilishi yoshlarning ichki dunyosini boyitadi va ularni ijtimoiy-axloqiy qiyofa bilan ta’minlaydi. Natijada, ma’naviy yuksaklikka intilgan, o‘z millatini sevuvchi va zamon talablariga javob beruvchi barkamol shaxslar tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh.M: “ Erkin va farovon,demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” .- T.:O‘zbekiston-2017
2. Mirziyoyev Sh.M: ”Ta’lim sohasidagi muammolar,ularni hal etish va ta’lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor mavzusida”30.10.2020.
3. XALQ OG‘ZAKI IJODI ORQALI YOSHLAR ONGIDA MILLIY G‘OYANI SHAKLLANTIRISH A. T. Tilegenov O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali erkin izlanuvchisi <https://cyberleninka.ru/article/n/halq-og-zaki-ijodi-orqali-yoshlar-ongida-milliy-g-oyni-shakllantirish>
4. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiyo/o-quvchilarni-ma-naviy-axloqiy-tarbiyalash>
5. Azamat Abdurashid O‘G‘Li Abduqodirov, & Azimaxon Odiljon Qizi Kamolova (2025). Muzeylarning inson ongiga ta’siri va ijtimoiy roli. Science and Education, 6 (3), 191-194.
6. Azimaxon Odiljon Qizi Kamolova, & Go‘Zal Xolmuhammad Qizi Rustamova (2025). Pedagoglar faoliyati jarayonida salomatlik madaniyatining ahamiyati va o‘rni. Science and Education, 6 (2), 329-333.
7. Камолова Азимахон, . (2025). Профессиональное здоровье учителей как ключевой фактор развития современного образования. Европейский международный журнал педагогики , 5 (01), 121-124. Получено с <https://inlibrary.uz/index.php/eijp/article/view/66569>
8. Azimaxon, K. (2025). Professional Health of Teachers as A Key Factor in The Development of Modern Education. European International Journal of Pedagogics, 5(01), 121-124.

9. Saidbek Dilmurod O'G'Li Aliqulov, & A.O.Kamolova (2025). Talabalar salomatligini saqlashda pedagogik faoliyatning ahamiyati. Science and Education, 6 (2), 313-319.
10. Tagayeva, S. U., & Kamolova, A. (2025). XORIJIY TILLARNI O 'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI. EDUCATION AND RESEARCH IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION, 1(2), 2769-2772.
11. Oribboyeva, D. D. (2024). PSIXOLOGINVISTIKA VA LINGVISTIK KOMPETENSIYA. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 346-349.
12. Oriboeva, D. D. va Rafiqova, R. A. (2024). O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limdi amalga oshirishning xususiyatlari. Fan va ta'lim , 5 (6), 290-293.
13. Dilshoda, I., & Oribboyeva, D. D. (2024). ALALIYA NUTQ NUQSONLARI VA UNING TURLARI. Yangi asr innovatsiyalari jurnali , 63 (3), 70-73.Oribboyeva, D. (2024). BULLING O 'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 115-117.
14. Dilshoda, I., & Oriboeva, D. D. (2024). AUTIZM NAMOYON BOLISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Journal of new century innovations, 63(3), 74-77.
15. Орифбоева Д. Д. ОПТИМИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ // Форум молодых ученых. 2017. №6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatelnogo-protsessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 31.03.2025).